


O'QUV DASTURI PASPORTI

O'quv dasturi Sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 17-noyabrdagi 291- buyrug'i asosida ishlab chiqilib Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi Olimlar Kengashining 2024-yil 06 iyuldagi №1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2026-yil avgustigacha.

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi				
Kafedra/ bo'lim	Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish				
O'quv dastur nomi	"Tibbiyot muassasalarini boshqarish asoslari"				
O'qish turi	mavzuli malaka oshirish				
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Asadov D.A., Xakimov V.A.				
Siklning umumiy soati	80 kredit				
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar					
					
Professor Asadov D.A.	Dotsent Xakimov V.A.	Kafedra mudiri, dotsent Asadov X.D.	Dotsent Xamrayev A.K.	Dotsent Narmuxamedova N.A.	Katta o'qituvchi Aripov T.Yu.
					
Katta o'qituvchi Sadikxadjueva D.A.	Katta o'qituvchi Agzamov A.A.	Katta o'qituvchi Abduraximova S.B.	Assistent Abbasxanova Sh.N.		
Maqsad		O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" O'RQ-788-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli, 2023-yil 9-sentyabrdagi PF-156 sonli Farmonlari va 2024-yil 5-sentyabrdagi PQ-311-sonli Qarori bilan belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan xolda Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 17-noyabrdagi 291-sonli buyrug'iga binoan Cog'liqni saqlash vazirligi va uning tasarrufidagi muassasalarda rahbarlik lavozimlariga yangi tayinlangan xodimlarga boshqaruv (menejment), muassasalar faoliyatini tashkillashtirish va taxlil etish, sog'liqni saqlash tizimi rahbar xodimlarining bilimi, mas'uliyati va muloqot madaniyati bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalar jamlamasini berish.			

Siklga taklif qilingan mutaxassislar – kontingent	Sogʻliqni saqlash tizimiga yangitdan rahbarlik lavozimiga tayinlanganlar; tibbiyot muassasalariga yangitdan rahbarlik lavozimiga tayinlanganlar.	
Sikl vazifalari	<u>Tinglovchilarga quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha maʼlumot berish:</u> -mamlakat ijtimoiy hayotidagi islohotlar; -jamoat salomatligi asoslari; -sogʻliqni saqlashni boshqarish asoslari; -tibbiy statistika, muassasalar faoliyatini taxlil qilish asoslari; -tibbiyot muassasalarining moliyaviy-xoʻjalik faoliyatini boshqarish asoslari; -tibbiy xizmat sifatini boshqarish asoslari; -sogʻliqni saqlashda menejment asoslari; -cogʻliqni saqlash tizimidagi aloxida xizmatlar asoslari; -sogʻliqni saqlash tizimida korrupsiyaga qarshi kurash, ijro intizomi; -tibbiy huquq, muloqot madaniyati asoslari; -tibbiyot muassasasi faoliyatini tashkillashtirish asoslari.	
Sikl tarkibi	Modul 1. Mamlakat ijtimoiy hayotidagi islohotlar. Modul 2. Jamoat salomatligi asoslari. Modul 3. Sogʻliqni saqlashni boshqarish asoslari. Modul 4. Tibbiy statistika, muassasalar faoliyatini taxlil qilish asoslari. Modul 5. Tibbiyot muassasalarining moliyaviy -xoʻjalik faoliyatini boshqarish asoslari. Modul 6. Tibbiy xizmat sifatini boshqarish asoslari. Modul 7. Sogʻliqni saqlashda menejment asoslari. Modul 8. Sogʻliqni saqlash tizimidagi aloxida xizmatlar asoslari. Modul 9. Sogʻliqni saqlash tizimida korrupsiyaga qarshi kurash, ijro intizomi asoslari. Modul 10. Tibbiy huquq, muloqot madaniyati. Modul 11. Sogʻliqni saqlashni boshqaruv organida, tibbiyot muassasalarida amaliyot. Yakuniy imtihon, baholash.	
Oʻquv bazalari	<u>Asosiy oʻquv baza:</u> Toshkent shahri, Parkent koʻchasi, 51 uy. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi. “Jamoat salomatligi va sogʻliqni saqlashni boshqarish” kafedrasi. Mashgʻulotlar kunduzgi (bevosita), masofaviy tartibda interfaol koʻrinishda olib boriladi. <u>Amaliy mashgʻulotlar uchun bazalar:</u> kafedrani ikki tomonlama shartnomalari mavjud davolash-profilaktika muassasalari masofaviy va sayyor mashgʻulotlar oʻtkazish uchun foydalaniladi. <u>Sogʻliqni saqlashni boshqaruv organida amaliyot oʻtash uchun bazalar:</u> Sogʻliqni saqlash vazirligi, tegishli xududiy sogʻliqni saqlash boshqaruv organi tomonidan taʼminlab beriladigan bazalar. Bunda bevosita xududiy sogʻliqni saqlash boshqaruv organidan (uning tarkibini oʻrganish va faoliyatida ishtirok etish maqsadida), uning tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalaridan foydalaniladi.	



Ўқув жараёни



Амалий машғулотлар жараёни

